



TURKIYADA MUHOJIRLAR TA'LIMI: TARIXI, MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

*O'zbekiston Milliy universiteti
“Jahon tarixi” kafedrasi magistranti
Abdishukurov Behzod*

Annotatsiya: Ushbu maqola Turkiyada muhojir bolalarning ta'lifi bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni o'rghanadi. Xususan, Suriyada 2011-yilda boshlangan fuqarolik urushi natijasida Turkiyaga ko'chib kelgan muhojirlarning farzandlari uchun yaratilgan ta'lim sharoitlari, qonunchilikdagi o'zgarishlar, hukumat siyosati va amaliy choralar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Inkluziv ta'lim, muvaqqat o'quv markazlari, Bola huquqlari konvensiyasi, elektron maktab tizimi, intellektual zaxira, gender tengsizlik.

XXI asrda mintaqaviy ziddiyatlar, urushlar va siyosiy beqarorliklar dunyo miqyosida millionlab insonlarning majburiy migratsiyasiga sabab bo'ldi. Xususan, Suriyada ichki urushlar boshlanganidan so'ng 2011-yilda Turkiyaga qochqinlarning dastlabki guruhi ko'chib keldi. Keyingi yillarda ularning sonining mutassil ortib borganini ko'rishimiz mumkin. 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Turkiyada umumiy muhojirlar soni 5 million atrofida bo'lib, ular yashagan o'lkalarini tark etib, Turkiyadan boshpana topganlar. Turkiya, o'zining strategik geografik joylashuvi, tarixiy tajribasi va xalqaro majburiyatlari asosida bu muhojirlarni qabul qilish vazifasini oldi. Ushbu migratsiya to'lqinining eng muammoli qatlamini esa bolalar tashkil etardi. Tarixiy nuqtai nazardan qaralganda, muhojirlarning ta'lim olish huquqi faqat ijtimoiy masala emas, balki uzoq muddatli milliy xavfsizlik, ijtimoiy integratsiya va taraqqiyot bilan bog'liq dolzarb muammolardan biridir.

Barcha bolalar teng qadrlanadigan va baholanadigan muhit yaratish inkluziv ta'liming asosidir. Inkluziv ta'limda ijtimoiy farqlarga qaramasdan, maktablardagi hamma o'quvchilar maktab jamoasining bir qismi hisoblanadi va ular buni his qilishlari



lozim. Turkiya uchun muhohirlarning ta’limi inkluziv ta’limning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Shu boisdan, barcha o‘quvchilar darslarga birga qo‘shilishini va ular sifatli ta’lim olishi uchun maktablar, sinflar o‘quv dasturlarini qanday isloh qilinishi hisobga olinishi ahamiyathlidir. Bundan maqsad o‘quvchilar orasidagi ijtimoiy, jismoniy va etnik farqlari muammo emas, aksincha ta’limni boyitish uchun imkoniyat sifatida ko‘rilishi maqsadga muvofiq. Albatta, bunday yonashuvni amaliyotga tatbiq qilish biroz zamon oladi.

Insonning hayotida ta’lim, ta’limning asosida esa boshlang‘ich ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Bolalar ham bu davrda dastlabki muvaffaqiyatlariga erishadilar. O‘qish-yozish va hisoblash kabi nazariy bilimlar bilan birga o‘z fikrlarni ifoda qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradilar. Muloqot qilish qobiliyatları ular bilan yaqin munosabatda bo‘lish bilan rivojlantiriladi. Turkiyada tahlil olayotgan muhohir bolalarning sinfdoshlari bilan kirishib ketishlari uchun o‘qituvchining yondashuvlari va munosabatlari ahamiyatlidir. Shu boisdan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va tarbiyachilarining vazifalari e’tiborga molikdir.

Mamlakatga ko‘chib kelgan o‘quvchilarning ta’limda yutuqlarga erishishi uchun sinflarda bir nechta o‘zgartirishlar qilinishi maqsadga muvofiq. O‘qituvchilar o‘quvchilarning barcha ma’suliyatlarini zimmalariga olishlari, ularga har tomonlama yordam berishlari va qo‘llab quvvatlashlari joizdir¹. Amerikalik pedagog Jeyms A. Banksning fikricha, inkluziv ta’limda o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan teng munosabat o‘rnatishi va ular bilan yaqin aloqada bo‘lishi muhim. Sinfda o‘quvchilar o‘zlarini bemalol ko‘rsatishlari uchun erkin muhit yaratishlari zaruriy choralardan biridir. Albatta bunday muhit yaratish uchun o‘qish-o‘rgatish munosabatlari sog‘lom yo‘lga qo‘yilishi talab etiladi. O‘quvchilar qanchalik qobiliyatlari bo‘lmashin, agar ular muloqot bilan bog‘liq muammolarni yengga olmasalar, bor salohiyatlarini namoyon qila olmaydilar. Uzoq davrlardan beri, muloqot va muloqotsizlik insoniyat oldida turgan va yechimini topmagan masaladir. Bu borligida huzur keltiradi, yo‘qligida esa ulkan muammolarga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, ta’lim sohasida qurilgan muloqot ba’zi

¹ Uçuş, Y. D. (2016). Devezantajlı Çocukların Velilerine Uygun Olarak Hazırlanan. *e-International Journal of Educational Research*, 25.



o‘quvchilarning hayotida chuqur iz qoldiradi. Shu sababdan o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan bo‘lgan munosabatlarida nihoyatda e’tiborli bo‘lishlari zaruriy shartlardan biridir.

Shuning uchun Turkiyada barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar bera oladigan inkluziv ta’limni rivojlantirish uchun jiddiy qadamlar tashlanmoqda. Yuqorida buning uchun o‘qituvchilarning xizmatlari nihoyatda muhim ekanligi haqida fikr yuritdik. Ammo ko‘chib kelgan bolalarning yangi muhitgako‘nikishdagi qiyinchiliklari farqli til va ma’daniyat hukmron mamlakatda tahsil olishni boshlashi va bu mamlakatning bolalari bilan bir sinfdan joy olishlarining kutilgan natijasidir. Albatta bu sinfdagi muhitga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi va boshqa bir til va ma’daniyatdan kelgan bolalarga dars berish uchun o‘qitilmagan o‘qituvchilar uchun ham bu yangi muammo keltirib chiqarishi mumkin. Boshida o‘quvchilarning o‘zlashtirishi past bo‘lishi bu normal holat. Biroq, migrant o‘quvchilarni o‘qitishda yetarli tajribaga ega bo‘limgan o‘qituvchi ularning muammolarini hal qilaman deb, sinfdagi boshqa o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu muammoning yechimi sifatida chet ellik bolalarga ta’lim berayotgan o‘qituvchilar uchun qisqa davrlik tayyorlov kurslari tashkil etish maqsadga muvofiq.

Turkiya juda katta iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lishiga qaramay, suriyalik muhojirlarning farzandlarini qisqa fursatda sifatli ta’lim bilan ta’minlay olmasdi. O‘z tarixiy qadriyatlariga ega bu davlat ularni o‘z holiga ham tashlab qo‘ya olmasdi va bu uning xalqaro obro‘yiga ham jiddiy putur yetkazardi. Shu boisdan hukumat bosqichma-bosqich muhojirlarning hayotini tartibga solish yo‘lidan bordi. Ular uchun sifatli inkluziv ta’lim yaratish buning bir qismi edi.

Dastlab buni amalga oshirish uchun o‘zga yurtdan kelgan o‘quvchi mavjud bo‘lgan sinflarda o‘qituvchilar va o‘quvchilar duch kelgan muammolarni tahlil etilishi lozim edi. Sinfda o‘quvchilarga mahalliy o‘quvchilar bilan teng imkoniyatlar bermasdan bunday ta’limni yaratish imkonsiz. Albatta bunday vaziyatda o‘qituvchidan o‘quvchilarni baholashda har tomonlama o‘ylab ko‘rish talab etilardi. Shu bilan birgamigrant o‘quvchini Turkiya ta’lim tizimiga moslashtirish va uni jamiyatga yetuk kadr sifatida taqdim etish uchun olib borilgan har qanday tadqiqot e’tiborga olinishi



zarur edi. Chunki bunday tadqiqotlar Turkiyada yashayotgan muhojir bolalarning ta’lim olishidagi muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qilardi.

Dastlab turk hukumati muhojirlarning oqimini vaqtincha deb o‘yladi, shu sababdan ularga “mehmon”dek munosabatda bo‘ldi. Jiddiy qarorlar qabul qilmadi. Ammo Suriyadagi urushlarning uzoq davom etishi ma’lum bo‘lgach, muhojirlarning huquqi 2014-yilda 6458-sonli Chet elliklar va Xalqaro Himoya qonuni (YUKK)ning Vaqtincha himoya qilish bandi bilan belgilab qo‘yildi². Albatta, bu chet elliklarning huquqini himoya qilish uchun vaqtincha chora edi.

Muhojirlarning yashash sharoitlarini tartibga solish uchun vazirliklar va davlat tashkilotlarining hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Favqulodda vaziyatlar Vazirligi (AFAD), Ichki ishlar vazirligi huzurida Immigratsiya boshqarmasi (GİGM), Sog‘liqni saqlash vazirligi, Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi huzurida Oila va Ijtimoiy islohotlar boshqarmasi bu masala uchun javobgar davlat muassasalari etib belgilandi³. Yuqorida aytilganidek, hukumat suriyaliklarning kelishini vaqtincha holat sifatida baholagan, shu boisdan ularning bolalariga turk tilini o‘qitish o‘rniga arab tilida ta’lim berishni ma’qul ko‘rgan. Lekin urush cho‘zilishi oydinlashgach, hukumat migrantlarning ta’lim olishi uchun yangi yechimlar izlashga majbur bo‘ldi.

2013-yilda chet ellik bolalar uchun ahamiyatli qarorlar qabul qilindi. Shu yili 26-sentabrda Suriyalik va boshqa chet ellik o‘quvchilarga oid yo‘riqnomalar ishlab chiqildi⁴. Mana shu yili 23-sentabrda 2014/21 sonli “Migrantlar uchun ta’lim xizmatlari” haqidagi yo‘riqnomalar bilan suriyalik bolalarning ta’lim olish huquqlari kafolatlandi. Chet ellik bolalarga davlat maktabalarida va muvaqqat o‘quv markazlarida ta’lim olish huquqi berildi. Vaqtincha himoya guvohnomasi va o‘zining fuqarolik passportidagi raqami bilan Turkiyadagi boshlang‘ich, o‘rta maktablari, litsey, universitet, xalq ta’lim markazlari va davlat maktabalarida o‘qish imkoniyatiga ega

²UNESCO. (2009). *Policy guidelines on inclusion in education*. Fransiya: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 20.

³Coşkun İ ve Emin, M. (2016). *Suriyelerin Eğitiminde Yol Haritası: Fırsatlar ve Zorluklar*. Ankara: SETA Yayınları, 40-45.

⁴Apak, H. (2014). Suriyeli göçmenlerin kente uyumları: Mardin örneği. *Mukaddime Dergisi*, 55-73.



bo‘ldilar⁵. 2016-2017-o‘quv yilidan boshlab Turkiyada istiqomat qilayotgan migrant bolalarning sifatli ta’lim olish huquqi davlat nazoratiga olindi. 2016-yildan e’tiboran chet ellik bolalar turk bolalarida mavjud bo‘lgan barcha huquqlardan foydalanishni boshladilar va tengqurlari bilan birga ta’lim olmoqdalar.

Hukumat Suriyada bo‘lib o‘tgan urushlar natijasida Turkiyaga kelgan barcha insonlarning ehtiyojlarini qondirishga harakat qildi. Turkiya BMTning Bola huquqlari konvensiyasi⁶ni imzolagan 142 davlatdan biri hisoblanadi. Shu boisdan suriyalik bolalarning tili, dini, irqi, etnik kelib chiqishidagi farqlarga qaramay, mamlakatda yashayotgan muhojir bolalar qonuniy nuqtai nazardan turk bolalar bilan teng huquqqa ega bo‘ldilar.

Muhojir bolalarni o‘qitish uchun Milliy ta’lim vazirligi Bir umrlik ta’lim boshqarmasi tomonidan “Migratsiya va Favqulodda ta’lim bo‘limi” tuzilgan. Chet ellik bolalarning ikki xil ta’lim yo‘li bor edi. Birinchi ta’lim yo‘lida bolalar davlat maktablarida turk tilidagi o‘quv dasturi asosida ta’lim oladilar. Ikkinchisida, o‘quvchilar muvaqqat o‘quv markazlarida o‘z ona tillarida tahsil oladilar. Migrant o‘quvchilarga berilgan chet ellik guvohnomasi (yabancı tanıma belgesi) bilan barcha davlat maktablarida o‘qiy oladilar. Davlat maktablarida chet ellik o‘quvchilar turk o‘quvchilari ega bo‘lgan barcha huquqdan foydalana oladilar va bog‘chadan boshlab o‘rta maktab oxiriga qadar elektron maktab tizimidan ro‘yxatdan o‘tishlari mumkin. Inkluziv ta’lim beriladigan maktablarda o‘quvchilarning muvaffaqiyat hisini tuyishlariga imkon berilishi lozim. Bu maktablarda tahsil olgan bolalarga davlatning intellektual zaxirasi kabi munosabatda bo‘lish, ularning ustozlari, ota-onalari va sinfdoshlariga ham alohida hurmat ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Turkiya maktablarida muhojir bolalar duch kelgan va hozirgacha to‘liq yechimini topmagan muammolar ham mavjud bo‘lib ular quyidagilardan iborat: *Darslarga ishtirok eta olmaslik:* Lagerlarda transport xizmarlarining yo‘lga

⁵Watch, H. R. (2015). Türkiye'deki Suriyeli Mülteci Çocukların Eğitime Erişiminin Önündeki Engeller Kayıp Nesil Olmalarını Önlemek, 34-42.

⁶Uçuş, Y. D. (2016). Dezavantajlı Çocukların Velilerine Uygun Olarak Hazırlanan. *e-International Journal of Educational Research*, 23.



qo‘yilmaganligi, gender tengsizlik va qizlarning erta turmushga berilishi. *O‘qituvchilar yetishmasligi*: Turkiyada chet elliklarga ta’lim beradigan o‘qituvchilarni tayyorlaydigan muassasalarning taqchilligi. O‘lkadagi ozchiliklar orasida ta’lim bera oladigan insonlarning yo‘qligi ham bu muammoning asosiy sabablaridan biri. *Til muammozi*: Chet ellik o‘quvchilarning Turk tilini, o‘qituvchilarning arabcha va boshqa muhojir o‘quvchilarning tilini bilmasligi natijasida o‘quv qo‘llanmalarini topilishi qiyinlashmoqda, shu boisdan til inkluziv ta’limdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. *Infratuzilmaning yo‘qligi*: Chet ellik o‘quvchilar ta’lim olishi uchun ajratilgan binolar har doim ham talab darajasida emas. Davlat tashkilotlari va xususiy korxonalar o‘rtasida muloqotning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi vaziyatni chigallashtirmoqda. *O‘quv dasturlari va darsliklar muammozi*: Sinfdagisi o‘quvchilar sonining ko‘pligi, darsliklar va o‘quv qurollarining yetishmasligi ham ta’limdagi jiddiy to‘siqlardan biri hisoblanadi. *Kambag‘allik va bolalarning mehnatga jalb qilinishi*: Muhtoj oilalar bolalarini maktabga yuborish o‘rniga ishlatalishga majbur bo‘lmoqdalar. Bolalarning darslarga qatnashmasdan ko‘chalarda tilanchilik yoki hammollik qilish holatlari uchrab turibdi. *Jamiyatga ishonmaslik*: Muhojirlar bolalarining maktablarda mahalliy o‘quvchilar tomonidan kamsitilishi, haqorat qilinishi va sig‘dirilmasligidan xavotir olganlari sababli ularni o‘qishga yuborishni xohlamayaptilar.

Yuqoridagi muammolarning ba’zilari inkluziv ta’limdagi infratuzilma va moddiy-texnik baza bilan bog‘liq. Bu muammolarni bartaraf etish hukumatdan siyosiy iroda talab qiladi. Insonlarning ijtimoiy muammolari bartaraf qilinsa, bolalarning o‘qishga e’tibori ijobiy tomonga o‘zgaradi. Ammo muammolar vaqtida bartaraf qilinmas ekan, ularning soni ortib boradi, bu holat vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Maktabning ijtimoiy funksiyasi bolalar va oilalar bilan muloqot qilish uchun nihoyatda ahamiyatli. Chet ellik bolalarning darslarga faol qo‘shilishi uchun maktab oila va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishni o‘z zimmasiga olishi lozim. Bu uning ijtimoiy funksiyalaridan biri. Marmara Universiteti professori Dr. Yasemin Özkanning fikriga ko‘ra, o‘quvchilarning boshidan kechirayotgan muammolarini hal qilish va ularning o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini oshirish uchun uning oilasi va u o‘sayotgan muhitga qarash kerak. Maktabning ijtimoiy funksiyasi



bolalarni turli kutilmagan xavflardan himoya qiladi va ota-onalar bilan hamkorlikni ta'minlaydi. Buning natijasida maktab o'quvchini o'qishdan chalg'itadigan turlijitimoiy muammolarni bartaraf qiladi.

Xulosa qilib aytganda, muhojirlarning ta'lim olishi davlatning insonparvarlik siyosatining eng muhim ko'rsatkichidir. Turkiya 2011-yildan keyin yuzaga kelgan og'ir ijtimoiy vaziyatda katta qiyinchiliklarga qaramay, muhojir bolalarni ta'lim tizimiga jalb etish yo'lida salmoqli choralar ko'rdi. Inkluziv ta'limni rivojlantirishda hukumat, nodavlat tashkilotlar va xalqaro hamjamiatning o'zaro hamkorligi asosiy omil bo'ldi. Biroq, mavjud muammolar — o'qituvchi yetishmovchiligi, infratuzilmaning zaifligi, til va madaniyat to'siqlari, kambag'allik va ijtimoiy muammolar — hali ham hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Apak, H. (2014). Suriyeli göçmenlerin kente uyumları: Mardin örneği. *Mukaddime Dergisi*, 55-73.
2. A. Banks, J. (2009). The Routledge International Companion to Multicultural Education. New York: Routledge, Taylor and Francis.
3. Coşkun İ ve Emin, M. (2016). *Suriyelerin Eğitiminde Yol Haritası: Fırsatlar ve Zorluklar*. Ankara: SETA Yayınları.
4. Özkan, Y. v. (2014). Çocuk ve Aile Odaklı Sorunların Çözümünde Okul Sosyal Hizmet Uzmanlarının Önemi: Uzmanların Çocuk ve Ailelerle Çalışmada Sahip Oldukları Beceriler. *Türkiye Sosyal Araşturmalar Dergisi*, S. 18 (3), 397-412.
5. Turan, S. (2004). *Sınıf Yönetimi*. Ankara: Pegem Akademi-Öğreti Yayınları.
6. UNESCO. (2009). *Policy guidelines on inclusion in education*. Fransiya: Birlashgan Millatlar Tashkiloti.
7. Watch, H. R. (2015). Türkiye'deki Suriyeli Mülteci Çocukların Eğitime Erişiminin Önündeki Engeller Kayıp Nesil Olmalarını Önlemek.
8. Uçuş, Y. D. (2016). Dezavantajlı Çocukların Velilerine Uygun Olarak Hazırlanan. *e-International Journal of Educational Research*.